



SOLIQ ORGANLARINING MAHALLALARDAGI FAOLIYATI VA UNING NATIJADORLIGI

Fayziev Farrux

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-8541-2367

ffayziev84@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada soliq organlari xodimlarining mahallada ish faoliyatini tashkil etilishi, uning huquqiy asoslari, rivojlanish tendensiyalari, bugungi kundagi holati, shuningdek, soliq organlari xodimlarining mahallada ish faoliyatini tashkil etilishi natijasida davlat va mahalliy budjetlar daromad manbalarining oshishiga ko'rsatgan ta'siri bo'yicha tegishli ma'lumot, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalla budjeti, "mahallabay" ishlash tizimi, mahalla uyushmasi, noturar joy, manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimi, zamonaviy bozor mexanizmlari, soliq organlari xodimlarining KPI ko'rsatkichlari, qo'shimcha soliq solish obyektlari, "mahalla yettiligi", soliq inspektori.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ В МАХАЛЛЯХ И ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Файзиев Фаррух

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье представлена актуальная информация, предложения и рекомендации по организации работы налоговых органов в махаллях, ее правовой базе, тенденциям развития, текущему состоянию, а также влиянию организации работы налоговых органов в махаллях на увеличение источников доходов государственного и местного бюджета.

Ключевые слова: бюджет махаллы, система работы "махаллабай", ассоциация махаллы, нежилые помещения, система целевых профилактических мер, современные рыночные механизмы, ключевые показатели эффективности налоговых органов, объекты дополнительного налогообложения, "махаллинской семерка", налоговый инспектор.

ACTIVITIES OF TAX AUTHORITIES IN MAHALLAS AND ITS EFFECTIVENESS

Fayziev Farrukh

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article presents current information, proposals and recommendations on the organization of the work of tax authorities in mahallas, its legal basis, development trends, current state, as well as the impact of the organization of the work of tax authorities in mahallas on increasing sources of revenue for the state and local budgets.

Keywords: mahalla budget, mahallabay work, system of mahalla, association of mahalla, non-residential premises, system of targeted preventive measures, modern market mechanisms, key performance indicators of tax authorities, objects of additional taxation, "mahalla seven", tax inspector.

Kirish.

Mamlakatimizda keyingi yillarda mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash, tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirish, uning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mahallaga qo'shimcha kuch va imkoniyatlar taqdim etilmoqda, vakolat ham, mas'uliyat ham quyi tizimga tushirilmoqda.

Prezidentimizning "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori (2022) qabul qilindi.

Mazkur hujjat bilan Mahallalar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'ini aholining soliq to'lash savodxonligini oshirish orqali undirishga ko'maklashish va har bir mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi uchun 2023 yil 1 yanvardan boshlab soliqlarni undirish ko'rsatkichi past bo'lgan tumanlarda «Mahalla byudjeti» tizimi huquqiy eksperiment tariqasida joriy etildi. Buning natijasida soliqlarni undirish ko'rsatkichi past bo'lgan tumanlardan undiriladigan mol-mulk va yer soliqlari (bundan noturar joylar bo'yicha mol-mulk va yer solig'i mustasno) bo'yicha undirilgan mablag'larning 10 foizi hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar tuman byudjetlari orqali tegishli Jamg'armalarga yo'naltirilishi belgilandi. Ushbu summalar mahalliy byudjet daromadlarining oshishiga, mahalliy hudud aholisining ijtimoiy hayoti, hudud infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki ushbu mavzu bugungi kunda juda dolzarb ekanligini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Mahalla – O'zbekistonda ma'muriy hududiy birlik, o'zini o'zi boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga xos bo'lgan usuli. Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, jez davrining yodgorligi bo'lgan Sopollitepada 8 ta oila yashagan. Ularni faqat urug' jamoasigina emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari ham birlashtirib turgan. Keyinchalik ularning safiga patriarxal tizim asosida 100 dan ortiq oilalar kelib qo'shilgan. Katta oilalar jamoasini ular orasidan saylangan oqsoqol boshqargan. Oqsoqollar o'z navbatida oliy oqsoqollar kengashiga birlashgan. Oqsoqollar, odatda, jamoa — qishloq hayoti bilan bog'liq barcha masalalarni oliy kengash orqali hal qilishgan. Kengash, asosan, sulh tuzish, vazirlar tarkibi va soliqlarni tayinlash, urush e'lon qilish, jamoa ishlariga safarbar etish kabi masalalar bilan shug'ullangan.

«Mahalla» atamasi arabcha bo'lib, «o'rin-joy» degan ma'noni anglatgan. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan (qomus.info, n.d.). Adabiyotlarda mahallalarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Macalan Narshaxiy (944) o'zining «Buxoro tarixi» asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir qancha mahallalar bo'lganini qayd etib o'tgan. Navoiy (2011) o'zining «Hayrat ul-abror» asarida Mahallani «mahalla shahar ichidagi shaharcha»dir deb ta'riflaydi.

Mahallalar fuqarolarning kasbkori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Mis, zargarlik, misgarlik, ko'nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va boshqalar. Mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos bir shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan.

Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir. 20 asrning boshlaridayoq mahallalar daha boshliqlari — mingboshilar saylaydigan yuzboshi (oqsoqollar) tomonidan boshqarilgan. Mahallaning asosiy vazifalari: marosimlarni birgalikda o'tkazish, o'z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta'minlash, barcha an'anaviy me'yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, urf-odatlariga rioya qilish va ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo'yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo'lgan. Mahalla rahbariyati ariq-hovuzlarni tozalash,

ko'chalar, yo'llar qurish va mahalla obodonchiligi bilan bog'liq boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. O'zbekiston Respublikasining dastlabki Konstitutsiyasining (2013) 105-moddasiga va «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunga binoan, Mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyat tarkibiga kirdi. Bugungi kunda mahallabay tizimning tashkil etilishi bu o'zidan o'zi paydo bo'lib qolgan jarayon emas, balki O'zbekistonning uzoq muddatdan boshlab amalga oshirayotgan islotlarining bir yo'nalishi desak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" deb nomlanadi. Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida 100-maqсад belgilangan, shuning 4-maqсадida "Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish» tamoyili asosida transformatsiya qilish" belgilab qo'yilgan. Farmonda barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o'z yo'nalishi bo'yicha muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarining holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezon sifatida belgilanishi ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-sonli Farmoni bilan O'zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil etildi. Uyushmaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida 5 ta shtat birligidan iborat bo'lgan «Mahalla yettiligi» faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limi tashkil etildi.

Mahallaning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish hamda sohada boshqa-ruv tizimini takomillashtirish maqsadida:

mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan "mahalla yettiligi"ni tashkil qilindi (Farmon, 2023).

Soliq inspektori — tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko'rsatish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish va mahalla byudjetining daromadini shakllantirishga mas'ul bo'lishi belgilab qo'yildi.

2024 yil 1 yanvardan boshlab «mahalla yettiligi» a'zolarining ish haqini asosiy ish joyidan berish tartibi saqlab qolinganda KPI asosida baholash natijalaridan kelib chiqib, ular moddiy rag'batlantirilib borilish tartibi joriy etildi.

Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o'z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda (Qaror, 2025).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev so'nggi yillarda mahallani ijtimoiy, iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirishni ustuvor vazifa etib belgilagan holda mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlash bo'yicha manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini samarali joriy etish bo'yicha bir qator yo'nalishlarni belgilab berdi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- oila-turmush munosabatlari doirasida hamda ayollar va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asl omillarini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish orqali ularning barvaqt oldini olish bo'yicha yangi ishlash mexanizmlarini belgilash;

- har qanday noqonuniy holatlar yuzasidan murojaatlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish tizimini yaratish, bu boradagi faoliyatni bevosita joylarda samarali yo'lga qo'yish orqali aholi roziligiga erishish (Qaror, 2026).

Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi mahalliy byudjet daromadlarini oshirish, mahallalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish, mahallalarda tinch, xavfsiz muhitni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlar hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Prezidentimizning 2023 yil 21 dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2025 yil 1 yanvar holatida Respublikamizda 9 453ta mahallaga 4330 ta soliq organi xodimlari birlashtirilgan edi.

1-jadval

Respublikamizda mavjud mahallalar va ularga birlashtirilgan soliq organlari xodimlari sonidagi o'zgarishlar tendensiyasi

№	Muddati	Mahallalar soni	Birlashtirilgan soliq organlari xodimlari soni	Izoh
1	01.01.2025	9453	4330	
2	28.02.2025	9453	4316	-14
3	31.03.2025	9453	4311	-5
4	30.04.2025	9453	4297	-14
5	31.05.2025	9453	4257	-40
6	30.06.2025	9453	4161	-96
7	01.07-30.09.2025	9453	4291	+130
8	31.10.2025	9009	4265	-26
9	30.11.2025	9009	3927	-338
10	31.12.2025	9009	3805	-122
11	28.02.2026	9009	2888	-917

Manba: ushbu ma'lumotlar Soliq qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatda mavjud mahallalar va ularga birlashtirilgan soliq organlari xodimlari soni yildan yilga pasayish tendensiyasiga ega. 2025 yil 1 yanvar holatida mahallalar soni 9453 tani tashkil etib, unga birlashtirilgan soliq organlari xodimlar soni 4330 nafarni tashkil etgan. 2026 yil 28 fevral holatida mahallalar soni 9009 tani tashkil etgan, birlashtirilgan soliq organlari 2888 nafarni tashkil etgan. Kamayish ko'rsatkichlari quyidagicha:

mahallalar sonida - 444 ta

birlashtirilgan soliq inspektorlari sonida - 917 taga kamaygan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda jami 9009 ta mahalla mavjud bo'lib, unga 2888 nafar soliq organlarining xodimlari birlashtirilgan. Eng ko'p soliq organlari xodimlari birlashtirilgan hududlar Toshkent viloyati, Toshkent shahri, Samarqand viloyatlar tashkil etgan. Ko'p sonli soliq organi xodimlarining birlashtirilishiga sabab, bu hududda soliq to'lovchilar sonining ko'pligi, aksincha eng kam soliq organlari xodimlari birlashtirilgan hududlar Sirdaryo viloyati, Navoiy viloyati, Jizzax viloyati ekanligi aniqlandi.

2-jadval

Respublikamizda mavjud mahallalar va ularga birlashtirilgan soliq organlari xodimlari soni
(01.01.2026 yil holatiga)

No	Hudud nomi	Mahallalar soni	Birlashtirilgan soliq organlari xodimlari soni	Izoh
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	452	150	-29
2	Andijon viloyati	879	230	
3	Buxoro viloyati	516	200	-43
4	Jizzax viloyati	304	120	-43
5	Qashqadaryo viloyati	776	230	-46
6	Navoiy viloyati	310	112	-39
7	Namangan viloyati	754	204	-129
8	Samarqand viloyati	1081	214	-93
9	Surxondaryo viloyati	723	186	-45
10	Sirdaryo viloyati	221	90	-33
11	Toshkent viloyati	883	311	-120
12	Farg'ona viloyati	1016	310	-87
13	Xorazm viloyati	509	173	-46
14	Toshkent shahar	585	358	-164
	JAMI	9009	2888	-917

Manba: ushbu ma'lumotlar Soliq qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.

Mahallaga birlashtirilgan soliq xodimlari soni kamayish tendensiyasiga karab bormoqda. Bunga bir necha omillar ta'sir etmoqda. Ulardan:

- Davlat organlari faoliyatida zamonaviy bozor mexanizmlari joriy etilishi, ular faoliyatiga raqamli texnologiyalarning keng tatbiq etilishi, shuningdek, davlat funksiyalarini amalga oshirishga xususiy sektorning jalb qilinishi kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi PQ-358-son qarori bilan Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlanganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 iyundagi «Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-105-son Farmoniga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida sohani raqamlashtirish hisobiga 1 080 ta boshqaruv shtat birligi qisqartirilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 iyuldagi «Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-111-son Farmoniga muvofiq Hukumat ijro apparati va ijro etuvchi organlarning shtat tuzilmalarini qayta ko'rib chiqqan holda maqbullashtirish belgilanganligi va boshqalar).

- soliq organlarining olib borilayotgan sohaviy islohotlar (yangi bo'limlarning ochilishi bunda qo'shimcha shtatlar berilmasdan ichki shtatdagi ishchilarning shtatdagi lavozimlari o'zgartirilishi) - ichki lokal me'yoriy xujjatlariga asosan ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasini tuzishda belgilab qo'yilgan xodimning samaradorlik ko'rsatkichi hisoblangan KPI ko'rsatkichlari belgilangan me'yordan past bo'lganda xodim bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilinishi;

Mahallalar sonidagi o'zgarishlarning asosiy sabablaridan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi "Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori talablarining ijrosini ta'minlash doirasida amalga oshirilmoqda.

Mahallalar va ularda soliq organlari xodimlari soni kamayish tendensiyasiga ega bo'lganiga qaramasdan davlat byudjetiga tushumlar miqdori pasaymasdan, aksincha oshib bormoqda. 3-jadval ma'lumotlari.

3-jadval

Mahallabay tizimni qo'llanilishi natijasida davlat byudjetiga tushgan soliq bo'yicha tushumlar haqida ma'lumot

(trln.so'm.)


No	Yillar	Tushum miqdori
1	2022 yil	138,6
2	2023 yil	165,6
3	2024 yil	199,5
4	2025 yil	247,5

Manba: ushbu ma'lumotlar Soliq qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, soliq tushumlari yillar davomida o'sish tendensiyasiga qarab bormoqda. Jumladan 2023 yilda davlat byudjetiga tushumlar miqdori 19,4 foiz o'sishga erishilgan bo'lsa, 2024 yilda o'tgan yilga nisbatan 20,4 foizni tashkil etgan (Kudbiyev, 2025). 2025 yilda davlat byudjetiga **247,5 trillion so'm** soliq tushumi jalb etilib, o'sish o'tgan yilga nisbatan 24 foizni tashkil etgan.

Soliq organlarining KPI tizimi orqali "mahallabay" ishlash tamoyili asosida faoliyat olib borilishi davlat byudjetiga soliq tushumlarining oshishiga olib keldi.

Soliq inspektorining "mahallabay" hamda "mahalla yettiligi" hamkorligida faoliyat yuritishi ijtimoiy hayotda yuqori o'zgarishlarni amalga oshirib kelmoqda. 1-rasm ma'lumotlarida ko'rish mumkin.




1-rasm. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektorlarining faoliyati samaradorligi

Manba: ushbu ma'lumotlar Soliq qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2025 yilning 1 aprel holatida soliq organlari tomonidan "mahallabay" tizim shaklida faoliyat yuritishi natijasida:

- faoliyati tiklangan sub'ektlar soni- 21 716 nafarni
- ro'yxatdan o'tkazilgan sub'ektlar soni - 28 513 nafarni
- o'zini o'zi band qilganlar soni - 963 589 nafarni
- ro'yxatdan o'tkazilgan dehqon xo'jaliklari soni - 10 464 nafarni tashkil etgan.

Hudud byudjetga qo'shimcha manbalarni jalb qilish bo'yicha 96 165 nafar ob'ektlar aniqlanib, buning natijasida mahalliy byudjetga 103,1 mlrd.so'm qo'shimcha soliq tushumlari tushishiga erishilib, 32 336 nafar norasmiy faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning ish faoliyati legallashtirilgan. 2025 yil 1 oktyabr holatiga mahallaga biriktirilgan soliq inspektorlarining faoliyati samaradorligini baholaydigan bo'lsak, bu davrda ham o'sish kuzatilmoqda. 2-rasm ma'lumotlari.



2-rasm. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektorlarining faoliyati samaradorligi


Manba: ushbu ma'lumotlar Soliq qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2025 yilning 1 oktyabr holatiga soliq organlari tomonidan "mahallabay" tizim shaklida faoliyat yuritishi natijasida:

- faoliyati tiklangan sub'ektlar soni- 53 201 nafarni
- ro'yxatdan o'tkazilgan sub'ektlar soni - 87 072 nafarni
- o'zini o'zi band qilganlar soni - 2 418 798 nafarni
- ro'yxatdan o'tkazilgan dehqon xo'jaliklari soni - 29 368 nafarni tashkil etgan.

Hudud byudjetga qo'shimcha manbalarni jalb qilish bo'yicha 474 018 nafar ob'ektlar aniqlanib, buning natijasida mahalliy byudjetga 370,5 mlrd.so'm qo'shimcha soliq tushumlari tushishiga erishilib, 174 265 nafar norasmiy faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar-ning ish faoliyati legallashtirilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki mahallaga biriktirilgan soliq organlari faoliyatini ijobiy baholash mumkin.

2026 yil 1 yanvar holatiga mahallaga biriktirilgan soliq inspektorlarining faoliyati samaradorligini baholaydigan bo'lsak, bu davrda ham o'sish kuzatilmoqda. 3-rasm ma'lumotlari.



3-rasm. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektorlarining faoliyati samaradorligi

Manba: ushbu ma'lumotlar Soliq qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2026 yilning 1 yanvar holatiga soliq organlari tomonidan "mahallabay" tizim shaklida faoliyat yuritishi natijasida:

- faoliyatini tiklangan sub'ektlar soni- 59 755 nafarni
- ro'yxatdan o'tkazilgan sub'ektlar soni - 110 201 nafarni
- o'zini o'zi band qilganlar soni - 2 945 624 nafarni
- ro'yxatdan o'tkazilgan dehqon xo'jaliklari soni - 38 395 nafarni tashkil etgan.

Hudud byudjetga qo'shimcha manbalarni jalb qilish bo'yicha 709 953 nafar ob'ektlar aniqlanib, buning natijasida mahalliy byudjetga 504,9 mlrd.so'm qo'shimcha soliq tushumlari tushishiga erishilib, 202 739 nafar norasmiy faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning ish faoliyati legalashtirilgan.

Mahalliy byudjetga qo'shimcha:

Mol-mulk solig'idan- 200,6 mlrd.so'm;

Yer solig'idan - 304,3 mlrd.so'm undirilgan.

Bugungi kunda barcha davlat boshqaruv tizimida, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanib kelinmoqda. Soliq organlari tomonidan "mahallabay" tizimda faoliyat yuritish jarayonida ham dasturiy mahsulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu dasturiy mahsulotlar "mahallabay" tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlar faoliyatida qo'llanilishi xodimlar samaradorligini real vaqt rejimida kuzatib borish, e'tibor qaratish lozim bo'lgan yo'nalishlarni belgilash, yakka tartibdagi tadbirkorlar, o'zini o'zi band qilganlar tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirishda, soliq tushumlari hisobini olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- soliq organlari faoliyatini bugungi kunda "mahallabay" tizimda tashkil etish zarur;
- "mahallabay" tizim orqali faoliyat yuritayotgan soliq organlari xodimlarining faoliyatini samarali tashkil etish uchun "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimini ishga tushirilishi maqsadga muvofiq.

- "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimini ishga tushirilishi raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi mahalla-larga birlashtirilgan soliq inspektorlari tomonidan tadbirkorlarga faoliyatini qonuniylashtirish va kengaytirishda yordam beradi;
- har bir tadbirkorlik sub'ekti bilan manzilli ish tashkil etgan holda muammolarni hal etish imkoniyatini yaratadi;
- past quvvatda ishlayotgan korxonalariga mavjud imkoniyatlarni o'rgangan holda to'liq quvvatda ishlashiga ko'mak berish orqali shu hiso-bidan soliq bazasini kengaytirish imkoniyatini beradi.
- mahalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirish imkoniyatini oshiradi;
- soliq organlari xodimlarining "mahallabay" tarzda faoliyatini tashkil etilishi mahalliy hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga katta ta'sir ko'rsatar ekan;
- aholi hayoti faravonligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- Kudbiyev, Sh.D. (2025) Halol mehnatning haqqoniy bahosi. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 19-aprel, № 80 (1406).
- Lex.uz (n.d.) Mahalla byudjeti tizimini joriy etish to'g'risida Qaror matni. Available at: <https://lex.uz/docs/6445145>
- Narshaxiy, A.B.M. ibn J. ibn Z. al-X. ibn Sh. an-N. (943–944) Buxoro tarixi (Tahqiqi viloyati Buxoro). Fors tilidan A. Rasulev tarjimasini.
- Navoiy, A. (2011) Hayrat ul-abror. Toshkent: Yangi asr avlodi, 88 b.
- O'zbekiston Respublikasi (2013) "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-350-son, 22 aprel.
- O'zbekiston Respublikasi (2024) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: Adolat.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Qaror, PQ-458-son, 26 dekabr.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023) "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon, PF-209-son, 21 dekabr.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2024) PQ-358-son Qaror, 14 oktyabr.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025a) "2025 yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaror, PQ-1-son, 3 yanvar.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025b) "Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon, PF-105-son, 26 iyun.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025c) "Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon, PF-111-son, 14 iyul.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2026) "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaror, PQ-1-son, 5 yanvar.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2014) Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida Qaror, 4 mart.
- Oyina.uz (n.d.) Axborot-tahliliy internet nashri. Available at: <https://oyina.uz/kiril/article/1948>
- Qomus.info (n.d.) Mahalla tushunchasi va uning tarixiy shakllanishi. Available at: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mahalla-uz/Ziyo.uz> (n.d.) Elektron kutubxona portali. Available at: <https://n.ziyouz.com/books/tarixiy/Abu%20Bakr%20Narshaxiy.%20Buxoro>